



Tadqiqot.uz

**ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Хуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

31 DEKABR
№35

CONFERENCE.uz



**“ЎЗБЕКИСТОН ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАРИ”
14-ҚИСМ**

**«ИННОВАЦИОННЫЕ НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЧЕНЫХ И МОЛОДЕЖИ УЗБЕКИСТАНА»
ЧАСТЬ-14**

**«INNOVATIVE SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH OF SCIENTISTS AND YOUTH OF
UZBEKISTAN»
PART-14**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистон олимлари ва ёшларининг инновацион илмий-амалий тадқиқотлари” [Тошкент; 2021]

“Ўзбекистон олимлари ва ёшларининг инновацион илмий-амалий тадқиқотлари” мавзусидаги республика 35-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 декабрь 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 16 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Узбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағищланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ТАСВИРИЙ САНЪАТ ВА ДИЗАЙН

1. Avezova Latofat, Xudayberganova Sadoqat	
TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARINING BOLALARDA ESTETIK VA BADIY	
TARBIYANI RIVOJLANTIRISHNING ROLI	7
2. Qodirova Maqsuda Ravshonbekovna, Abdullayeva Muqaddas Ahmatjanovna	
TASVIRIY SAN'AT JANRLARINI XUSUSIYATLARI	8
3. Umirova Farida Ro'ziboyevna	
O'QUVCHILARDA CHIZISH QOBILYATINI SHAKLLANTIRISH USTUVORLIGI	10
4. Toirova Nargis Rayimovna	
TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA NARSANING O'ZIGA QARAB RASM CHIZISHGA	
O'RGATISH	12
5. Yusupova Dilfuza Yuldashevna	
BADIY TA'LIMDA QALAMCHIZGILARNING AHAMIYATI.....	14



ТАСВИРИЙ САНЪАТ ВА ДИЗАЙН

TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARINING BOLALARDA ESTETIK VA BADIY TARBIYANI RIVOJLANTIRISHNING ROLI

Avezova Latofat

Xorazm viloyati Urganch tumani
1-maktab tasviriy san'at fani o'qituvchisi

Telefon:+998931511788

Xudayberganova Sadoqat

Xorazm viloyati Bog'ot tumani
27-maktab Tasviriy san'at fani o'qituvchisi

Telefon:+998886000494

Annotatsiya: Tasviriy san'at o'quvchilarning har jihatdan yetuk bo'lishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. U o'quvchilarning estetik va badiiy tarbiyasida muhim omil hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Tasviriy san'at, badiiy did, estetika, estetik va badiiy didni o'stirish, estetik tarbiya, san'at

«Bizni hamisha o'yantirib keladigan yana bir muhim masala-bu yoshlarimizning odob axloqi,yurish turishi,bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim-yoshlari. Mayli,yoshlari o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz,qanday ulug' zotlarning avlodimiz,degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib,o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya,tarbiya va tarbiya hisobidan» SH.M.Mirziyoyev

Tasviriy san'at o'quv predmeti har bir inson uchun zarur bo'lган badiiy madaniyatga oid elementar bilim va malakalar beradi. Chunki har bir o'quvchi kelajakda qaysi sohada ishlashidan qat'iy nazar u ishdan tashqari vaqtlarida dam olishi, hordiq chiqarishi, ish vaqtida sarflangan quvvatini tiklashi kerak bo'ladi.Bunga u yuksak badiiy saviyada ishlangan san'at asarlari bilan muzey, ko'rgazmalar va boshqa joylarda tanishish, ularni idrok etish, ulardan zavqlanish orqali erishadi.Bu ularda estetik did va badiiy qobiliyatlarini o'stiradi. Bog'chada tasviriy san'at mashg'ulotlarining bir qator vazifalari bor.Biz ularni shartli ravishda ikki qismga bo'lamiz:

1. Tasviriy san'at darslarining o'ziga xos, maxsus vazifalari hisoblanib ular: borliqdagi va san'atdagi go'zalliklarni ko'ra bilish, idrok etish, tushinish va qadrlashga o'rgatish; estetik va badiiy didni o'stirish; bolalar badiiy ijodiy qobiliyat va fantaziyanı rivojlantirish; tasviriy san'atning nazariy asoslari bilan tanishtirish rasm ishlash ,haykal yasash, badiiy qurish va yasash yuzasidan elementlar, malakalar hosil qilish; kuzatuvchanlik, ko'rish xotirasi, chamlash qobiliyati, fazoviy va obrazli tasavvurlarni, san'atga nisbatan qiziqish uyg'otish uni qadrlashga, sevishga o'rgatish.

2.Tasviriy san'at darslarining qo'shimcha vazifalari.Ular :borliqnini, hayotni bilishga ko'maklashish; milliy g'urur va milliy istiqlol mafkurasiniamalga oshirish; bolalarda axloqiy (vatanparvarlik, baynalminal); mehnat, jismoniy tarbiyani amalga oshirish; bolalarni turli kasb va hunarga yo'llash. Bog'chada tasviriy san'at estetik tarbiyani amalga oshirishga yo'naltirilgan asosiy o'quv predmeti hisoblanib, u quyidagi yo'nalishlarda amalga oshadi:

- Bolalarning tabiat, san'at va hayotdagi go'zalliklarini idrok etishga o'rgatish;

- o'quvchilarning estetik didini tarbiyalash, go'zallikni baholay olish qobiliyati, haqiqiy go'zallikni xunuk voqeа narsalardan farqlay bilishga o'rgatish;

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. «Mana buyuklar «kanali
2. Internet malumotlari



TASVIRIY SAN'AT JANRLARINI XUSUSIYATLARI

**Qodirova Maqsuda Ravshonbekovna
Abdullayeva Muqaddas Ahmatjanovna**

Xorazm viloyati Xiva shahar
9 – maktab tasviriy san’at o’qituvchilari
+99888 857 06 46
+99890 430 72 88

Annotatsiya: ushbu maqolada tasviriy san’at turlari janrlari va xususiyatlari haqida yoritilgan.

Kalit so’zlar: Tasviriy san’at nazariyasi, tur va janrlari, qalamtasvir texnologiyasi, akvarel, guash, tempera, moy bo’yoq texnologiyasi.

Hozirgi kunda barcha fanlar qatori amaliy fanlarning ham o’rni beqiyos. Shunday ekan biz san’atning turlari shakllari haqida yoritishni afzal ko’rdik. San’atning turlari juda ko’p. Ular musiqa, kino, teatr, xoreografiya, tasviriy san’at va boshqalardir. Odatda borliqni tasviriy obrazlarda, shakllarda, fazoviy kenglikda yoki tekislikda (qog’oz yuzasida, devor yuzasida va hokazolarda) aks ettiradigan san’at tasviriy san’at deb ataladi. San’atkor real borliqni o’z asarlarida tasvirlar ekan, u hech vaqt uni mexanik ravishda ko’chirmaydi. Aks holda, u yaratgan san’at asarlarining fotograf yaratgan rasmlardan farqi bo’lmay qoladi. San’atkorning vazifasi oliyroqdir.

Tasviriy faoliyat turlari o’rtasidagi o’zaro aloqa ishlarini rejalashtirishda katta ahamiyatga ega ekan. Bu o’zaro bog’lanish qaysilar ekan?

1. Tasviriy faoliyatga ta’lim-tarbiya ishining muhim bo’lagi, deb qarash hamda rasm chizish, loy bilan ishslash, applikatsiya mashg’ulotlarini rejalashtirishda dasturning barcha bo’limlari o’rtasidagi o’zaro aloqa, bog’lanishni doimo diqqat-e’tiborda tutish lozim. Ya’ni tevarak-atrof bilan tanishтирish, musiqa mashg’ulotlari va hokazo. Bular tasviriy faoliyat uchun qiziqarli hodisalar va voqealarni tanlashga yordam beradi.

2. Tasviriy faoliyatning barcha turlari tevarak-atrof, hayotni
3. obrazlarda tasvirlaydi, ammo har biri o’ziga xos xususiyatga ega
4. ekanligini hisobga olmoq zarur. Ya’ni rasm chizish - predmet va
5. voqealarni rangda tekis yuzada tasvirlaydi, loy hajmlarda, applikatsiya
6. - rangda, siluet ravishda. Shuningdek, har biri o’ziga xos tasvir
7. texnikasiga ega: rasm chizish chiziqli grafik ravishda, rangtasvir
8. usulida, loy plastik ravishda, applikatsiya - qog’ozdan qirqish va
9. alohida qismlardan tuzish.
10. Dasturda tasviriy faoliyat turlari oldiga qo’yilgan vazifalardan
11. biri ularning o’zaro aloqada ekanlidir. Masalan, bolalar rang bilan
12. rasm chizish bilan bir vaqtida, applikatsiya bilan ham tanishib
13. boradilar.
14. Tasviriy faoliyati turlari o’rtasidagi bog’lanish tarbiyachiga rasm
15. chizish, loy, applikatsiya bo’yicha vazifalarni aniqlashga yordam beradi.
16. Masalan, kichik guruhga doiraviy shakllarni o’rgatishda, oldin tayyor
17. doira shakllarini applikatsiyada bergen ma’qul, so’ng esa rasm chizish
18. mashg’ulotlarida bergen ma’qul.
5. Tasviriy faoliyat turlari o’rtasidagi bog’lanish ma’lum bir
6. mavzudagi mashg’ulotlar asosida ham bolishi mumkin. Masalan, rus
7. xalq eftagi «Bo’g’irsoq»ni bolalar ham chizishi, ham applikatsiya,
8. ham loydan yasashi mumkin. Bu turdagи takrorlanish
9. mavzuga nisbatan qiziqishlarini pasaytirmaydi, chunki har bir faoliyat
10. turi jarayonida bolalar ertak qahramonlarining xilma-xil tasvirining
11. yangi usul va yo’llari bilan tanishadilar.
12. Tasviriy faoliyat mashg’ulotlarini to’g’ri rejalashtirishda,
13. mashg’ulotlar o’rtasida ularning dastur vazifalari, mavzular o’rtasida
14. bog’lanish vujudga keladiki, buning natijasida yangi malaka
15. va ko’nikmalarini va bilimlarni egallashlarida ma’lum ketma-ketlik va
16. bog’lanish vujudga keladi. Masalan, «Qushlar» rnavzusi asosida olib



17. borilgan mashg’ulotlar jarayonida bolalar don cho’qiyotgan qushni
18. loydan yasashni, shoxda o’tirgan qushni rasmini chizishni, afsonaviy
19. qushni qanday qilib qog’ozdan qirqib olishni bilib oladilar.
20. Shuningdek, tasviriy faoliyati bo'yicha ishni rejalashtirishda
21. faqatgina ularning turlari o’rtasidagi ketma-ketlikni nazarda tutmay,
22. balki har bir turdag'i mashg’ulotlar o’rtasida ham bog’lanish o’rnatish
23. va ularni diqqatda tutish lozim. Masalan, predmetli rasm chizish loy
24. ishlaridan keyin mazmunli ishlarni rejalashtirish lozim.

Tasvirlangan voqealarda shartli elementlar keng o’rinni egallaydi. Dekorativ san’at buyumlari birmuncha erkin, ijodkor fantaziyasiga bog’liq holda yaratiladi va eng avvalo, tevarak-atrofga fayz kiritishga qaratilgan bo’ladi. Masalan, jimgimador ustun, eshik, darvozalar, devorlarning tashqi va ichki tomoniga ishlanadigan rangli naqsh va bo’rtma tasvirlarni bunga misol qilib ko’rsatish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boymatov B. “Qalamtasvir o’qitishning ilmiy asoslari” darslik Toshkent
2. 1995 yil. 3. Boymetov B “Portret qalam tasvir” Toshkent 2001 yil. 4. Tojiev
3. B. “Qalam tasvir asoslarini o’rganish” Toshkent 1994 yil.



O'QUVCHILARDA CHIZISH QOBILYATINI SHAKLLANTIRISH USTUVORLIGI

Umirova Farida Ro'ziboyevna

Sirdaryo viloyati 50-umumta'lim maktabi

Tasviriy san'at va chizmachilik fani o'qituvchisi

+998993468362

Annotatsiya: o'zbekistonda ta'lif tizimida tasviriy san'at darslarini tashkil etish an'anaviy usuldan innovatsion usulga o'tishning vaqt kelganligi barchamizga ayondir. Ushbu maqola o'quvchilarda rasm chizish qobilyatini shakllantirish va ularni to'g'ri yo'naltirish xususida. Shuningdek, o'quv jarayonlarida tasviriy san'at fani tashkil etilishi haqida tavsiyalar beriladi

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, kognitiv rivojlanish, Psevdonaturalistik bosqich, sxematik bosqich, visual xaritalash

San'atga ishtiyogi bo'lgan har bir kishi ijodiy qiyinchilikka duchor bo'lgan san'at asarini boshdan kechirishning shakllantiruvchi daqiqalarini eslaydi. Ajoyib san'at asarlariga duch kelganimizda yoki yaratish imkoniyati mavjud bo'lsa, san'at individual o'sish va rivojlanish uchun juda muhim ekanligini va hatto sog'lig'imizga ta'sir qilishi mumkinligini tushunamiz.

Kognitiv rivojlanishimizda rasm chizish katta rol o'ynaydi. Bu bizga ijodiy yozish va fikrlashni o'rganishga, qo'l-ko'zni muvofiqlashtirishni rivojlantirishga, analitik ko'nikmalarni rivojlantirishga va g'oyalarni kontseptuallashtirishga yordam beradi. Ammo maktablarda rasm chizish kamdan-kam hollarda o'rganish vositasi sifatida qo'llaniladi. Umuman olganda, ko'pchilik o'rta maktab o'qituvchilari vizual ta'lif bo'yicha o'qitilmagan. Rasm chizish san'at darslari bilan chegaralanib qolishi kerak bo'lgan narsa emas - bu maktab ta'limining ko'plab turli fan sohalarida, keyin esa ish joyida rol o'ynashi mumkin bo'lgan mahoratdir. O'rta maktab o'quvchilari uchun rasm chizish ko'p jihatdan o'rganishga qo'shilishi mumkin, jumladan, vizual xaritalash, aks ettiruvchi fikrlash, axborotni tashkil qilish va taqdim etish, til to'siqlarini engib o'tadigan muloqot usuli.

Ammo boshlang'ich maktabdan o'rta maktabga o'tish ko'pincha rasm chizish qobiliyatiga ishonchsizlikni keltirib chiqaradi. Bu shuni anglatadiki, talabalar o'z fikrlarini tartibga solish usuli sifatida chizishdan foydalanishni istamasligi mumkin. Mana nima uchun chizish juda muhim va nima uchun bolalarga maktabda mahorat o'rgatish kerak. Bolalar chizishni qanday o'rganishadi. Chizmalar sizning tafakkuringizning tashqi ko'rinishidir - va siz kichkinaligingizda siz doimo shunday edingiz. Odamlar chiza olmayman deyishsa, aslida nimani nazarda tutgan bo'lsa, ular biror narsani ko'rindigandek chiza olmaydilar. Ammo, har qanday mahorat singari, chizish ham o'qitilishi kerak. Chizishning olti bosqichi bor, degan fikr keng tarqalgan. Bularga quyidagilar kiradi;

Chizish bosqichi (2-4 yosh):

Bolalar o'zlarining jismoniy harakatlari ular qo'ygan belgilarni belgilashi mumkinligini tushunish jarayonidan o'tadilar. Dastlab bu tasodifiy chizma (kinestetik faoliyat), lekin ko'proq boshqariladigan faoliyatga aylanadi.

Sxemadan oldingi bosqich (4-7 yosh) Bolalar munosabatlarni va atrof-muhitni o'rganish uchun shakllar va belgilardan foydalanishni boshlaydilar.

Sxematik bosqich (7-9 yosh): Bolalar "sxema" yoki ob'ekt yoki shaxs yoki atrof-muhitni tasvirlashning izchil usulini ishlab chiqadilar. Bu tasvirlar odatda biror narsa haqidagi bilimlarini namoyish etadi.

Haqiqiy bosqich (9-12 yosh): Bolalar o'z chizmalarida bat afsil va real xususiyatlarga e'tibor berishni boshlaydilar. Ular o'zlarining tengdoshlari va chizmalarida tafsilotlar darajasini bilishadi.

Psevdonaturalistik bosqich (12-14 yosh):

Bolalar yakuniy mahsulotga, tasvirning yaxshi ko'rinishiga va tengdoshlari va ota-onalariga yoqadimiyo'qligiga e'tibor berishni boshlaydilar. Ular o'zlarining chizmalarida uch o'lchamli makon haqida tushunchaga ega bo'la boshlaydilar. O'quvchilar ko'pincha natijadan norozi bo'lishlari mumkin.

O'smirlik inqirozi / badiiy qaror (14-17 yosh):

O'smirlik davrida rasm chizish va vizual fikrlashni davom ettirish uchun ongli qaror qabul qilinishi kerak. Yaratilgan tasvirlar juda individuallashtiriladi. Qanday qilib chizish sizga ijodiy fikrlashga yordam beradi? Chizmachilik ko'plab sohalarda qo'llaniladi, masalan, diagnostikada



kuzatish ko'nikmalarini o'rgatish, antropologiyada dala yozuvlarini olish usuli sifatida, fanda eksperimentlar va jarayonlarni hujjatlashda, dizaynda g'oyalarni kontseptsiyalashda, arxitekturada binolarni xaritalash va fazoviylashtirishda va prototiplarni ishlab chiqish texnologiyasi. Yuraktorakal jarroh Frencis Uells jarrohlik amaliyotini, hatto operatsiya paytida bemorning qoni bilan tortib olish darajasiga qadar chizmalarini chizadi . Vizual xaritalash - muammolarni aniqlash va havolalar yaratish usuli. Bu sizdan biror narsani qanday bo'lsa, xuddi shunday chizishingizni talab qilmaydi. Sinektika, biriktiruvchi fikrlash texnikasi, gestalt nazariyasi, mazmunli idrok etish psixologiyasi, kompozitsiya texnikasi sifatida uchdan birlar qoidasi, rang psixologiyasi, tomoshabinni jalb qilish uchun rangdan qanday foydalanishimiz va dizayn tamoyillari kabi oddiy vizual tashkil etish usullarini o'rganish mumkin. talabalarga o'quv dasturi bo'yicha ma'lumotlarni tartibga solish va jalb qilishda yordam berish.

O'zbekiston jamiyatining innovatsion va ijodkor a'zolarini yetishtirish uchun ta'lim tizimimizga ehtiyoj ortib bormoqda – talabalar ijodiy fikrlovchi bo'lishlari kerak. Ularning ijodiy bo'lishining asosiy usuli - bu fikr va g'oyalarni haqiqiy va aniq narsalarga aylantirishni o'rganishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Azimov B. Natyurmort tuzish va tasvirlash metodikasi. Toshkent: “O'qituvchi”, 1984.
2. Boymetov B. Qalamtasvir. Pedagogika institatlari va universitetlari uchun o'quv qo'llanma. T., 1977.
3. Rostovstev N. Akademicheskiy risunok. M: “Prosveshenie”, 1985.
4. Hasanov R. Tasviriy san'at darslari samaradorligini oshirish yo'llari. Toshkent: «O'qituvchi», 1984.
5. Shkola izobrazitel'nogo iskusstva. M: “Iskusstvo”, 1964-1980.



TASVIRIY SAN`AT DARSLARIDA NARSANING O`ZIGA QARAB RASM CHIZISHGA O`RGATISH

Toirova Nargis Rayimovna

Navoiy shahar 2-umumiyyat o`rtalim maktabi
tasviriy san`at va chizmachilik fani o`qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tasviriy san`at darslarida narsaning o`ziga qarab rasm chizishga o`rgatish usullari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so`zlar: tasvir, grafika, real borliq, frontal holat, geometrik shakllar...

Intellektual asr hisoblangan zamonaliviy dunyoda sifatli ta`lim olish va undan hayotiy jarayonlarda foydalana olish dolzarb masala hisoblanib, o`quvchilarni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellectual va ma`naviy salohiyatga ega insonlar bo`lib yetishishida biz tasviriy san`at o`qituvchilari zimmasida ham juda katta mas`uliyat yuklanadi. Chunki rasm chizish jarayonida o`quvchining fikrlashi rivojlanadi, dunyoqarashi kengayadi.

<p>Rasm chizish darslarida ta`lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirishda tasviriy san`atning 5 turidan foydalaniladi:</p> <ul style="list-style-type: none">1. Narsani o`ziga qarab rasm chizish.2. Mavzu asosida rasm chizish.3. Dekorativ rasm chizish.4. Grafika5. Yozuv taxtasida rasm chizish.	<p>Tasviriy san`atni o`qitishda o`quvchilarning ijobil qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi uch asosiy yo`nalishga ega:</p> <ul style="list-style-type: none">1. Asliga qarab chizish2. Kompozitsiya asoslarini o`zlashtirish3. Mustaqil tasviriy ijodiyot
---	---

Narsaning o`ziga qarab rasm chizish o`tiladigan tasviriy san`at mashg`ulotlarining asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Mashg`ulotning bu turi ko`rgazmalilik tamoyiliga asoslanganligi sababli shaxsning har tomonlama kamol topshida katta ahamiyatga ega. Narsani o`ziga qarab rasm chizish o`quvchilarning fikrlash jarayonini va kuzatishni maqsadga muvofiq holda olib borishga o`rgatadi. Bu esa rasm chizishning boshqa turidagi tasvirlash faoliyati uchun katta ahamiyatga egadir. Real borliqni bilish ko`p jihatdan kishilarning ko`rish qobiliyatiga bog`liqdir. Narsani o`ziga qarab rasm chizish esa ko`rish qibiliyatini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Bajariladigan vazifa qanday bo`lishidan qat`iy nazar, u aqliy faoliyatni ma`lum miqdorda faollashtirishni taqazo etadi. Narsani o`ziga qarab rasm chizishda chizuvchi naturani sinchiklab o`rganadi.Uning tuzilishini o`ziga xos belgilarini aniqlashga harakat qiladi, qismlarga ajratadi, solishtiradi. Bularning hammasi aqliy faoliyat bilan bevosita bog`liqdir. Narsani o`ziga qarab rasm chizish aniq obrazni tushunchalarni o`stirish orqali xotira faoliyatini ham mustahkamlaydi. Bu, ayniqsa, narsani xotiradan chizishda ko`zga yaqqol tashlanadi. Bunday rasm chizish jarayonida abstract tafakkur ham rivojlanadi.

Narsaning o`ziga qarab rasm chizish darslari ikki bosqichda olib boriladi:


Birinchi bosqich-bu hajmga ega bo`lmagan perespektiv qisqarishini o`z oldiga maqsad qilib qo`ymaydigan tekis narsalar, ya`ni daftarlар, bayroqcha, papka, o`quvchilar sumkasi, bolta, arra, har xil daraxtlar barglari va shunga o`xshash boshqa narsalar rasmini old tomondan frontal holatda chizdiriladi.

Ikkinchi bosqichda-hajmli narsalar ya`ni mevalar, gul, hayvon, odam, uy anjomlari, qisqasi uch o`lchovga ega bo`lgan (eni, bo`yi, kengligi) geometric shakllar va narsalarni chizdirishdan iboratdir.

O`quvchilar dars jarayonida birinchidan rasm chizishning asosini o`rgansalar, ikkinchidan ijodiy qobiliyatlar o`sib estetik jihatdan tarbiyalanib boradilar, I-II guruhlarda o`ziga qarab rasm chiziladigan narsalarni to`g`ri ko`rishga asosiy shaklning bo`yini eniga nisbatan qog`oz yuziga kompozitsion jihatdan to`g`ri joylashishini, bo`laklarning nisbiy o`lchovini ko`rsatib ularning bir-biriga bog`liqligini, ranglarini aniqlash va ularning o`ziga xos xususiyatlari alohida ahamiyat



beriladi. I-II bosqichlardagi tasviriy san`at darslarida tik, yotiq, qiya chiziqlarini to‘g‘ri chiza olishni, kvadrat, to‘g‘riburchakli, to‘rtburchakli, uchburchak, doira va boshqalarni tasavvur qila olish to‘g‘ri chiza bilish hamda chiziqlarni ko‘z chamasida teng bo‘laklarga bo‘lish qobilyatlarini o‘sirib boorish kerak bo‘ladi. Chizilgan rasmni akvarel, guash bo‘yoqlari bilan bo‘yashdan oldin uning rangini to‘g‘ri aniqlab olish va shu rang nomini to‘g‘ri aytishga o‘quvchilarni o‘rgatib boorish talab etiladi. Narsaga qarab rasm ishlashda bolalarni bosqichlar asosida rasm ishslashga o‘rgatish juda muhim hisoblanib, bunda bolalar birinchi galda rasmni o‘lchov jihatidan to‘g‘ri belgilashga, ikkinchidan rasmni qog‘oz yuzasida to‘g‘ri joylashtirishga o‘rgatiladi. Buyuk italyan rassomi Mikelandjelo Buonarroti aytganidek: “Rasmni qo‘l bilan emas, miya bilan chizish kerak”. Rassom bu so‘zlari bilan shunchaki ko‘chirib chizish emas, balki narsa haqida obrazli tushunchaga ega bo‘lib chizishning ahamiyatini alohida ta‘kidlaydi.



Biz tasviriy san`at sirlarini o‘qitishda, aynan narsani oziga qarab chizish mashg`ulotlarini o‘rgatishda ko‘rgazmali vositalarning barchasini o‘zida mujassamlashtirgan televideniya o‘quv vositalardan foydalansak, ishimiz ancha osonlashadi. Televideniya orqali berib borilayotgan tasviriy san`atga oid ko‘rsatuvlarni dars mazmuniga ustalik bilan uyg‘unlashtirsak, o‘quvchilarning bilim olish sifati yanada oshadi.

Fransuz ma`rifatparvari Jan-Jak Russo: “Bolalarning rasm chizib o‘rganishlari, ularning faqat tasviriy san`atlarga qiziqishlari uchun emas, balki ularni ko‘zlarini o‘tkir, qo‘llarini ixcham bo‘lishi uchun ham foydalidir”, -deb bejizga ta‘kidlamagan. Zero, dunyoni yorqin ranglar orqali tasvirlash va dunyoqarashni shakllantirish aynan tasviriy san`at orqali amalga oshishini unutmasligimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xasanov R “Tasviriy san`at darslarida o‘quvchilarni estetik ruhda tarbiyalash” Toshkent. 1983.
2. Darsliklar asosida qo‘llanmalar



BADIY TA'LIMDA QALAMCHIZGILARNING AHAMIYATI

Yusupova Dilfuza Yuldashevna

Xorazm viloyati Urganch shahar

23-son maktabning tasviri san'at va
chizmachilik fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada badiiy ta'lilda qalamchizgi yani xomaki rasmlarning ahamiyati haqida fikr bildirilgan. Bunda qisqa muddatli o'quv va xomaki rasmlar chizish keltirilgan.


Kalit so'zlar: qalamchizgi, tasviriy san'at, naturmort, kompozitsiya, yaxlit, natura, chizgi, xomaki rasm, qalamtasvir, rasm.

Qalamtasvir –barcha tasviriy san'at turlarining asosi hisoblanib, chizilish vaqt va bajarilish qonun-qoidalariiga asosan tez qalamchizgi, qalamchizgi (xomaki rasm), akademik qalamtasvir turlariga bo'linadi.

Tasviriy san'atning har bir turi bo'yicha biror ish yoki asar yaratilishidan oldin loyiha, eskizlar qalamchizgilar orqali bajariladi. Xomaki rasm - odadta qisqa, ba'zan esa juda qisqa va o'ta cheklangan vaqt davomida, ko'p hollarda rasm chizuvchining o'ziga bog'liq bo'lmagan holatlarda bajariladigan predmet dunyosining umulashdirilgan to'liqsiz tasviridir. Bunda ishni tezlashtirish maqsadida eng kam grafik vositalardan foydalilaniladi.

Murakkab shaklni faqat uning asosi, mayda ikir-chikirlarsiz tipik va o'ziga xos alomatlari aniq va ifodali tarzda hal etiladigan predmet dunyosining realistik tasvirini umulashdirilgan, deb hisoblamoq kerak. Shuning uchun ham xomaki rasm ko'p hollarda “yaxlit, ko'zga ko'rinish turgan predmetning qism, bo'lakchalarsiz tasviri bilan belgilanadi”.

Xomaki rasmlar akademik vazifani boshlashdan avval o'quv rasmini kompozitsiya jihatidan joylashtirishda har doim ham naturaning umulashdirilgan tasviridan, ya'ni aslini olganda, xomaki rasmdan foydalilaniladi. Shuning uchun o'quv muassasalarida pedagoglar akademik rasmni boshlashdan avval o'quvchilarga naturani turli nuqtalardan turib qalamchizgilar bajarishni va shundan so'ng kerakli joyni tanlab olgandan so'ng asosiy ishga kirishishni maslahat beradilar. Chunki, xomaki rasm muvaffaqiyat bilan topilganda naturaning butun massasi joylanishi davomli o'quv rasmining asosi bo'lib xizmat qilishi mumkin.



Xomaki rasm va chizgilarga o'rgatishda natura sifatida xuddi davomli rasm chizishda qo'llaniladigan shaklan yaqin bo'lgan (yoki mazmunan shu kabi) obektlardan foydalilaniladi: 1)



«о‘лик» (tirik bo‘lmagan) natura, (natyurmort) 2) o‘simliklar, 3) hayvonlar, 4) inson.



Xomaki rasmlar chizishda foydalaniladigan usullarni farqlash xomakilarning oltita turini belgilab olish imkonini beradi. Xomaki rasmlar va ularning turlari quyidagilardan iborat:

- naturani kuzatgan holda undan boshidan oxirigacha bevosita ijro etiladigan xomaki rasmlar;
- kombinatsiya usuli (dastlab naturadan kuzatib, keyinchalik naturasiz – xotira bo‘yicha) bilan ijro etiladigan xomaki rasmlar;
- faqat xotiradan bajariladigan, ya’ni kuzatishdan keyin biror vaqt o‘tgandan so‘ng, ongda ko‘rish qobiliyati musthkamlanganidan keyin chiziladigan xomaki rasmlar;
- insoning avval ongida qabul qilingan ba’zi predmetlar, tirik obektlar va atrof borliq hodisalar haqidagi tasavvurlarni jonlantirish qobiliyati bilan boo‘liq tasavvurlar bo‘yicha ishlanadigan xomaki rasmlar;
- kompleks usul bilan, ya’ni yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan hamma ish usullarini, jumladan tasavvur bo‘yicha usullarini qo‘llagan holda bajariladigan xomaki rasmlar;
- hayolga keltirish bo‘yicha – biror-bir ijodiy fikr yoki badiiy obraz, mavzu, syujet va xokazo predmet va hodisalar haqida o‘z tasavvurlarini jonlantrib tiklash asosida dastlabki umumlashgan tasvirning xomaki rasmlari chizish.

Chizgi - xomaki rasmga nisbatan ancha to‘liq hisoblanadi. Lekin ba’zi hollarda u davomli o‘quv rasmiga qaraganda ancha qisqa vaqt oralig‘ida naturadan bajariladigan predmet dunyosining mukammal bo‘lmagan tasviri hamdir. Chizgi ustida ishlash vaqtini odatda rasm chizuvchining o‘zi belgilaydiki, bu ushbu rasm mazmuni, shuningdek uning keyinchalik amalga oshadigan maqsadiga qo‘yadigan talablariga bog‘liqdir.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. G.M.Abdurahmonov Rangtasvir va kompozitsiya. Toshkent, 1995.
2. B. Boyme tov. Qalamtasvir. Musiqa nashriyoti. Toshkent. 2006.
3. B.Boymetov “Qalamtasvir asoslari”. O’quv qo’llanma. Toshkent, 1999.

“ЎЗБЕКИСТОН ОЛИМЛАРИ ВА ЁШЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАРИ”

(14-қисм)

Масъул мұхаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳих: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.12.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000